



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilarning uyda yakka tartibda
ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch
o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq **buyuraman:**

1. 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarning ruhiy rivojlanishida nuqsoni (F83, F84) bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 4-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridagi boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarning aqliy rivojlanishida nuqsoni (F70, F71) bo‘lgan o‘quvchilar uchun tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 5-ilovaga muvofiq;

Ta’lim o‘zbek va rus tillarida olib boriladigan ruhiy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 6-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 6-fevraldagi 40-sonli buyrug'iga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqni barcha turdagi ta'lim muassasalariga yetkazish;

o'quv jarayonini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tayanch o'quv reja va tushuntirish xatlari asosida tashkil etilishini hamda ularning to'liq bajarilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi "Uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilarning uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 261-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona bo'limi (S.Xashimov) mazkur buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil 29-iyul,
276-son

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilarning
uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
tayanch o'quv reja**

T/r	O'quv fanlari	Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soatlar
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
I.	Filologiya fanlari	4	4,5	4,5	4,5	5,5	5,5	4,5	4,5	4,5	5	5	52
1	Ona tili	2	2	2	2	2	2	1,5	2	2	2	2	21,5
2	O'qish savodxonligi	1,5	1,5	1,5	1,5								6
3	Adabiyot					1,5	1,5	1	1	1	1	1	8
4	Rus tili		0,5	0,5	0,5	1	1	1	1	1	1	1	8,5
5	Chet tili	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	0,5	0,5	1	1	8
II.	Ijtimoiy fanlar					1	1	1	1,5	1,5	2	2	10
6	Tarixdan hikoyalar					1							1
7	Qadimgi dunyo tarixi						1						1
8	O'zbekiston tarixi							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
9	Jahon tarixi							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
10	Davlat va huquq asoslari								0,5	0,5	0,5	0,5	2
11	Tarbiya										0,5	0,5	1
III.	Aniq fanlar	2,5	2	2	2	2,5	2,5	2	1,5	1,5	3	3	24,5
12	Matematika	2	1,5	1,5	1,5	2	2						10,5
13	Algebra							1	1	1	1	1	5
14	Geometriya							1	0,5	0,5	1	1	4
15	Informatika va axborot texnologiyalari	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5				1	1	5
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2	2	2	2	2	13
16	Fizika							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
17	Kimyo							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
18	Biologiya							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
19	Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari							0,5	0,5	0,5	0,5		2
20	Tadbirkorlik asoslari											0,5	0,5
21	Tabiiy fan (Science)	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5						3
V.	Amaliy fanlar	1	1	1	1	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0	0	6,5
22	Tasviriy san'at	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5					3,5
23	Chizmachilik								0,5	0,5			1
24	Texnologiya	0,5	0,5	0,5	0,5								2
Umumiy soatlar		8	8	8	8	10	10	10	10	10	12	12	106

**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilarning
uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati**

I. O'quv soatlarini tashkil etish

1. Ushbu o'quv reja Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug'i asosida tuzilgan.

2. "Ona tili va adabiyot, O'qish savodxonligi" fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida "Ona tili" fani negizida 2 soat "Yozuv", "O'qish savodxonligi" fani negizida 1,5 soat "Alifbe";

3-4-choraklarida 2 soat "Ona tili", 1,5 soat "O'qish savodxonligi" fani o'qitiladi.

3. Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda **"Rus tili"** fani 2-4-sinflarda 0,5 soatdan, 5-11-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

4. Chet tili fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-4-sinflarda hamda 8-9- sinflarda 0,5 soatdan;

5-7-sinflarda hamda 10-11-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

5. "Tarix" fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

5-sinfda "Tarixdan hikoyalar" 1 soatdan;

6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixi" 1 soatdan;

7-11-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 0,5 soatdan, "Jahon tarixi" fani haftasiga 0,5 soatdan o'qitiladi.

6. "Matematika" faniga ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda "Matematika" fani haftasiga 2 soatdan;

2-4-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 1,5 soatdan;

5-6-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 2 soatdan;

7 va 10-11-sinflarda "Algebra" fani 1 soatdan, "Geometriya" fani 1 soatdan;

8-9-sinflarda "Algebra" fani 1 soatdan, "Geometriya" fani 0,5 soatdan o'qitiladi.

7. "Informatika va axborot texnologiyalari" fani 1-4-sinflarda o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan, 5-6- va 10-11-sinflarda esa "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

8. "Tabiiy fanlar (Science)" fani boshlang'ich sinflarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari va 5-6-sinflarda "Fizika", "Biologiya", "Geografiya" fanlari o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

9. O'quv rejaga asosan dars jadvali o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, ota-onalar bilan kelishgan holda **haftasiga kamida uch kunga moslab** tuziladi hamda maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

10. O'quvchining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, ota-onalarning arizasiga muvofiq o'quv rejada ko'rsatilgan fanlarni umumiy soatlar miqdoridan oshmagan holda 1 soatga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Bunday o'zgartirish maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quv rejadagi bitta fanni boshqa bir fan bilan almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

11. Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish maktabning o'quv dasturi asosida tashkil etiladi.

12. Dars mashg'ulotlarida o'quvchining olgan baholari har bir fan bo'yicha alohida yuritiladigan baholash daftariga hamda o'quvchi ro'yxatda turgan maktabning o'quvchilarning davomati va o'zlashtirishini hisobga olish elektron tizimiga kiritib boriladi.

13. O'quvchi og'ir miya jarohatlari, bosh miyada bo'lgan jarrohlik operatsiyalari, shuningdek, kasalligi zo'raygan davrda yoki o'quvchining ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlarda tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasiga asosan, unda ko'rsatilgan muddatga o'qishdan ozod etilishi mumkin.

14. Uyda yakka tartibda ta'lim olgan o'quvchilar uchun yakuniy davlat attestatsiyasi maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, o'quvchining uyida yoki maktabda tashkil etiladi.

15. Mazkur o'quv reja asosida uyda yakka tartibda ta'lim olgan, yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilarga (psixik rivojlanishida og'ir nuqsoni va aqli zaifligi bo'lgan o'quvchilar bundan mustasno) belgilangan tartibda davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma) beriladi.

16. Mazkur hujjatga o'quv rejasi bo'yicha o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan fanlardan yakuniy baho qo'yiladi, dars mashg'ulotlaridan ozod etilgan fanlarga baho qo'yilmaydi hamda uning o'rniga "ozod etilgan" degan so'zlar yozib qo'yiladi.

17. Mazkur o'quv reja O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risida nizomning 1-ilovasiga binoan Tibbiy-maslahat komissiyasi xulosasiga ko'ra quyidagi kasalliklari bo'lgan bolalar uchun tatbiq etiladi.

-somatik kasalliklar;

-xirurgik kasalliklar;

-teri kasalliklari;

- ruhiy va psixik holati yomonlashmagan ko'rish va eshitish bilan bog'liq kasalliklar.

18. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish esa — aqli zaif bolalar uchun jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv reja va dasturi asosida tashkil etiladi.

II. Yakuniy qoidalar

19. O'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Mazkur namunaviy tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasi 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

21. Barcha turdagi davlat ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**Ta’lim rus tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilarning
uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
tayanch o‘quv reja**

T/r	O‘quv fanlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soatlar
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
I.	Filologiya fanlari	4	4,5	4,5	4,5	5,5	5,5	4,5	4,5	4,5	5	5	51
1	Ona tili	2	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1	1	16
2	Adabiyot					1,5	1,5	1	1	1	1	1	8
3	O‘qish savodxonligi	1,5	1,5	1,5	1,5								6
4	O‘zbek tili		1	1	1	1,5	1,5	1	1,5	1,5	1,5	1,5	13
5	Chet tili	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	0,5	0,5	1	1	8
II.	Ijtimoiy fanlar	0	0	0	0	1	1	1	1,5	1,5	2	2	10
6	Tarixdan hikoyalar					1							1
7	Qadimgi dunyo tarixi						1						1
8	O‘zbekiston tarixi							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
9	Jahon tarixi							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
10	Davlat va huquq asoslari								0,5	0,5	0,5	0,5	2
11	Tarbiya										0,5	0,5	1
III.	Aniq fanlar	2,5	2	2	2	2,5	2,5	2	1,5	1,5	3,5	3,5	25,5
12	Matematika	2	1,5	1,5	1,5	2	2						10,5
13	Algebra							1	1	1	1,5	1,5	6
14	Geometriya							1	0,5	0,5	1	1	4
15	Informatika va axborot texnologiyalari	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5				1	1	5
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2	2	2	2	2	13
16	Fizika							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
17	Kimyo							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
18	Biologiya							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
19	Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari							0,5	0,5	0,5	0,5		2
20	Tadbirkorlik asoslari											0,5	0,5
21	Tabiiy fan (Science)	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5						3
V.	Amaliy fanlar	1	1	1	1	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0	0	6,5
22	Tasviriy san’at	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5					3,5
23	Chizmachilik								0,5	0,5			1
24	Texnologiya	0,5	0,5	0,5	0,5								2
Umumiy soatlar		8	8	8	8	10	10	10	10	10	12	12	106

**Ta'lim rus tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilarning
uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan
tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati**

I. O'quv soatlarini tashkil etish

1. Ushbu o'quv reja Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug'i asosida tuzilgan.

2. **"Ona tili va adabiyot, O'qish savodxonligi"** fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida "Ona tili" fani negizida 2 soat "Yozuv", "O'qish savodxonligi" fani negizida 1,5 soat "Alifbe";

3-4-choraklarida 2 soat "Ona tili", 1,5 soat "O'qish savodxonligi" fani o'qitiladi.

3. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda "O'zbek tili" fani 2-4- va 7-sinflarda 1 soatdan, 5-6-va 8-11-sinflarda 1,5-soatdan o'qitiladi.

4. **"Chet tili"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-4-sinflarda hamda 8-9- sinflarda 0,5 soatdan;

5-7-sinflarda hamda 10-11-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

5. **"Tarix"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

5-sinfda "Tarixdan hikoyalar" 1 soatdan;

6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixi" 1 soatdan;

7-11-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 0,5 soatdan, "Jahon tarixi" fani haftasiga 0,5 soatdan o'qitiladi.

6. **"Matematika"** faniga ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda "Matematika" fani haftasiga 2 soatdan;

2-4-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 1,5 soatdan;

5-6-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 2 soatdan;

7 va 10-11-sinflarda "Algebra" fani 1 soatdan, "Geometriya" fani 1 soatdan;

8-9-sinflarda "Algebra" fani 1 soatdan, "Geometriya" fani 0,5 soatdan o'qitiladi.

7. **"Informatika va axborot texnologiyalari"** fani 1-4-sinflarda o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan, 5-6- va 10-11-sinflarda esa "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

8. **"Tabiiy fanlar (Science)"** fani boshlang'ich sinflarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari va 5-6-sinflarda "Fizika", "Biologiya", "Geografiya" fanlari o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

9. O'quv rejaga asosan dars jadvali o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, ota-onalar bilan kelishgan holda **haftasiga kamida uch kunga moslab** tuziladi hamda maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

10. O'quvchining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, ota-onalarning arizasiga muvofiq o'quv rejada ko'rsatilgan fanlarni umumiy soatlar miqdoridan oshmagan holda 1 soatga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Bunday o'zgartirish maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quv rejadagi bitta fanni boshqa bir fan bilan almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

11. Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish maktabning o'quv dasturi asosida tashkil etiladi.

12. Dars mashg'ulotlarida o'quvchining olgan baholari har bir fan bo'yicha alohida yuritiladigan baholash daftariga hamda o'quvchi ro'yxatda turgan maktabning o'quvchilarning davomati va o'zlashtirishini hisobga olish elektron tizimiga kiritib boriladi.

13. O'quvchi og'ir miya jarohatlari, bosh miyada bo'lgan jarrohlik operatsiyalari, shuningdek, kasalligi zo'raygan davrda yoki o'quvchining ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlarda tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasiga asosan, unda ko'rsatilgan muddatga o'qishdan ozod etilishi mumkin.

14. Mazkur o'quv reja asosida uyda yakka tartibda ta'lim olgan o'quvchilarga (psixik rivojlanishida og'ir nuqsoni va aqli zaifligi bo'lgan o'quvchilar bundan mustasno) 9-sinfni tamomlaganida davlat namunasidagi **shahodatnoma**, 11-sinfni tamomlaganida esa davlat namunasidagi **attestat** beriladi.

15. Uyda yakka tartibda ta'lim olgan o'quvchilar uchun bosqichli nazorat va yakuniy davlat attestatsiyasi maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, o'quvchining uyida yoki maktabda tashkil etiladi.

16. Yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchiga ta'lim olganligi to'g'risida davlat namunasidagi hujjat beriladi.

Mazkur hujjatga o'quv rejasi bo'yicha o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan fanlar uchun baho qo'yiladi, dars mashg'ulotlari o'tilmagan fanlarga baho qo'yilmaydi hamda uning o'rniga "ozod etilgan" degan so'zlar yozib qo'yiladi.

17. Mazkur o'quv reja O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risida nizomning 1-ilovasiga binoan Tibbiy-maslahat komissiyasi xulosasiga ko'ra quyidagi kasalliklari bo'lgan bolalar uchun tatbiq etiladi.

-**somatik kasalliklar;**

-**xirurgik kasalliklar;**

-**teri kasalliklari;**

- **ruhiy va psixik holati yomonlashmagan ko'rish va eshitish bilan bog'liq kasalliklar.**

18. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish esa — aqli zaif bolalar uchun jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv reja va dasturi asosida tashkil etiladi.

II. Yakuniy qoidalar

19. O'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Mazkur namunaviy tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasi 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

21. Barcha turdagi davlat ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj
o‘quvchilarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2026-2027-o‘quv yiliga
mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja**

T/r	O‘quv fanlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soatlar
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
I.	Filologiya fanlari	4	4,5	4,5	4,5	5,5	5,5	4,5	4,5	4,5	5	5	51
1	Ona tili	2	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1	1	16
2	Adabiyot					1,5	1,5	1	1	1	1	1	8
3	O‘qish savodxonligi	1,5	1,5	1,5	1,5								6
4	O‘zbek tili		1	1	1	1,5	1,5	1	1,5	1,5	1,5	1,5	13
5	Chet tili	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	0,5	0,5	1	1	8
II.	Ijtimoiy fanlar	0	0	0	0	1	1	1	1,5	1,5	2	2	10
6	Tarixdan hikoyalar					1							1
7	Qadimgi dunyo tarixi						1						1
8	O‘zbekiston tarixi							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
9	Jahon tarixi							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
10	Davlat va huquq asoslari								0,5	0,5	0,5	0,5	2
11	Tarbiya										0,5	0,5	1
III.	Aniq fanlar	2,5	2	2	2	2,5	2,5	2	1,5	1,5	3,5	3,5	25,5
12	Matematika	2	1,5	1,5	1,5	2	2						10,5
13	Algebra							1	1	1	1,5	1,5	6
14	Geometriya							1	0,5	0,5	1	1	4
15	Informatika va axborot texnologiyalari	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5				1	1	5
IV.	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2	2	2	2	2	13
16	Fizika							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
17	Kimyo							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
18	Biologiya							0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	2,5
19	Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari							0,5	0,5	0,5	0,5		2
20	Tadbirkorlik asoslari											0,5	0,5
21	Tabiiy fan (Science)	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5						3
V.	Amaliy fanlar	1	1	1	1	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0	0	6,5
22	Tasviriy san’at	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5					3,5
22	Chizmachilik								0,5	0,5			1
24	Texnologiya	0,5	0,5	0,5	0,5								2
Umumiy soatlar		8	8	8	8	10	10	10	10	10	12	12	106

**Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan uzoq vaqt davolanishga muhtoj
o'quvchilarning uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2026-2027-o'quv yiliga
mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati**

I. O'quv soatlarini tashkil etish

1. Ushbu o'quv reja Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarni tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug'i asosida tuzilgan.

2. **"Ona tili, adabiyot va O'qish savodxonligi"** fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida "Ona tili" fani negizida 2 soat "Yozuv", "O'qish savodxonligi" fani negizida 1,5 soat "Alifbe";

3-4-choraklarida 2 soat "Ona tili", 1,5 soat "O'qish savodxonligi" fani o'qitiladi.

3. Ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan maktablarda "O'zbek tili" fani 2-4- va 7-sinflarda 1 soatdan, 5-6-va 8-11-sinflarda 1,5-soatdan o'qitiladi.

4. **Chet tili** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-4-sinflarda hamda 8-9- sinflarda 0,5 soatdan;

5-7-sinflarda hamda 10-11-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

5. **"Tarix"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

5-sinfda "Tarixdan hikoyalar" 1 soatdan;

6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixi" 1 soatdan;

7-11-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 0,5 soatdan, "Jahon tarixi" fani haftasiga 0,5 soatdan o'qitiladi.

6. **"Matematika"** faniga ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda "Matematika" fani haftasiga 2 soatdan;

2-4-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 1,5 soatdan;

5-6-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 2 soatdan;

7 va 10-11-sinflarda "Algebra" fani 1 soatdan, "Geometriya" fani 1 soatdan;

8-9-sinflarda "Algebra" fani 1 soatdan, "Geometriya" fani 0,5 soatdan o'qitiladi.

7. **"Informatika va axborot texnologiyalari"** fani 1-4-sinflarda o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan, 5-6- va 10-11-sinflarda esa "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

8. **"Tabiiy fanlar (Science)"** fani boshlang'ich sinflarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 5-6-sinflarda "Fizika", "Biologiya", "Geografiya" fani o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

9. O'quv rejaga asosan dars jadvali o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, ota-onalar bilan kelishgan holda **haftasiga kamida uch kunga moslab** tuziladi hamda maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

10. O'quvchining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, ota-onalarning arizasiga muvofiq o'quv rejada ko'rsatilgan fanlarni umumiy soatlar miqdoridan oshmagan holda 1 soatga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Bunday o'zgartirish maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quv rejadagi bitta fanni boshqa bir fan bilan almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

11. Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish maktabning o'quv dasturi asosida tashkil etiladi.

12. Dars mashg'ulotlarida o'quvchining olgan baholari har bir fan bo'yicha alohida yuritiladigan baholash daftariga hamda o'quvchi ro'yxatda turgan maktabning o'quvchilarning davomati va o'zlashtirishini hisobga olish elektron tizimiga kiritib boriladi.

13. O'quvchi og'ir miya jarohatlari, bosh miyada bo'lgan jarrohlik operatsiyalari, shuningdek, kasalligi zo'raygan davrda yoki o'quvchining ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlarda tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasiga asosan, unda ko'rsatilgan muddatga o'qishdan ozod etilishi mumkin.

14. Uyda yakka tartibda ta'lim olgan o'quvchilar uchun yakuniy davlat attestatsiyasi maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, o'quvchining uyida yoki maktabda tashkil etiladi.

15. Mazkur o'quv reja asosida uyda yakka tartibda ta'lim olgan, yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilarga (psixik rivojlanishida og'ir nuqsoni va aqli zaifligi bo'lgan o'quvchilar bundan mustasno) belgilangan tartibda davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma) beriladi.

16. Mazkur hujjatga o'quv rejasi bo'yicha o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan fanlardan yakuniy baho qo'yiladi, dars mashg'ulotlaridan ozod etilgan fanlarga baho qo'yilmaydi hamda uning o'rniga "ozod etilgan" degan so'zlar yozib qo'yiladi.

17. Mazkur o'quv reja O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risida nizomning 1-ilovasiga binoan Tibbiy-maslahat komissiyasi xulosasiga ko'ra quyidagi kasalliklari bo'lgan bolalar uchun tatbiq etiladi.

-somatik kasalliklar;

-xirurgik kasalliklar;

-teri kasalliklari;

-ruhiy va psixik holati yomonlashmagan ko'rish va eshitish bilan bog'liq kasalliklar.

18. Psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga uyda yakka tartibda ta'lim berish esa — aqli zaif bolalar uchun jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv reja va dasturi asosida tashkil etiladi.

II. Yakuniy qoidalar

19. O'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Mazkur namunaviy tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasi 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

21. Barcha turdagi davlat ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan boshlang‘ich tayanch korreksion
sinflarning ruhiy rivojlanishida nuqsoni (F83, F84) bo‘lgan o‘quvchilar uchun
2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan
tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlar (sinflar kesimida)				Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	
I.	Filologiya fanlari	9	11	11	11	42
1	Ona tili	4	4	4	4	16
2	O‘qish savodxonligi	4	3	3	3	13
3	Rus tili		2	2	2	6
4	Chet tili	1	2	2	2	7
II.	Ijtimoiy fan	1	1	1	1	4
5	Tarbiya	1	1	1	1	4
III.	Aniq fanlar	6	6	6	6	24
6	Matematika	5	5	5	5	20
7	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1	1	4
IV.	Tabiiy fanlar	1	1	1	1	4
8	Tabiiy fan (Science)	1	1	1	1	4
V.	Amaliy fanlar	4	5	5	5	19
9	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	4
10	Tasviriy san’at	1	1	1	1	4
11	Texnologiya	1	1	1	1	4
12	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	7
Umumiy soatlar		21	24	24	24	93
Korreksion mashg‘ulotlar						
1	Logopediya mashg‘uloti	2	2	2	2	8
2	Rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish mashg‘uloti	2	2	2	2	8
Jami		4	4	4	4	16

**Umumta'lim maktablarining boshlang'ich tayanch korreksion
sinflarning ruhiy rivojlanishida nuqsoni (F83, F84) bo'lgan o'quvchilar uchun
2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu o'quv reja Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarni tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug'i asosida tuzilgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining boshlang'ich tayanch korreksion sinflari uchun dars jadvalini ishlab chiqishga asos hisoblanadi. O'quv reja ta'lim tashkilotlari fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini, o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimal hajmini belgilaydi.

II. O'quv soatlarining taqsimlanishi

2. **"Ona tili" va "O'qish savodxonligi"** fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga "Ona tili" fani negizida 4 soat "Yozuv" fani, "O'qish savodxonligi" fani negizida 4 soat "Alifbe";

3-4-choraklarda 4 soat "Ona tili" fani, 4 soat "O'qish savodxonligi" fani o'qitiladi;

- o'quv yili davomida haftasiga 2-, 3-, 4-sinflarda "Ona tili" fani 4 soatdan, "O'qish savodxonligi" fani 3 soatdan o'qitiladi.

3. **"Chet tili"** fani 1-sinfda 1 soatdan, 2-4-sinflarda esa 2 soatdan o'qitiladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri chet tili fani sifatida tanlanadi va uni o'qitishda ushbu fan bo'yicha malakali fan o'qituvchisi mavjudligi inobatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-sonli qarori asosida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri umumiy o'rta ta'lim maktabida yoki ma'lum bir sinfida chet tili fani sifatida o'qitiladi.

4. **"Tarbiya" fani** o'quv yili davomida haftasiga 1-4-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

Tarbiya fani ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ularning ijtimoiy-maishiy hayotga moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan holda, mazkur maqsadlar bilan uzviy bog'liq tarzda o'qitiladi.

5. **"Informatika va axborot texnologiyalari"** fani 1-4-sinflarda o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

6. **"Tabiiy fanlar (Science)"** fani 1-4-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

**III. Fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib
boruvchi pedagog xodimlar**

7. Fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorida belgilangan talablar, tegishli tartibda qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishli buyruqlari va quyida ko'rsatilgan tavsiya asosida o'qitilishi lozim:

a) “Ona tili”, “O‘qish savodxonligi”, “Tarbiya”, “Matematika”, “Tabiiy fan (Science)” fanlari va “Logopediya mashg‘uloti”, “Rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish mashg‘uloti” maxsus pedagogika (defektologiya, oligofrenopedagogika) yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega mutaxassislar tomonidan, shuningdek, defektologiya yoki oligofrenopedagogika yo‘nalishi bo‘yicha tegishli qayta tayyorlashdan o‘tgan boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi. Ushbu fanlardan dars beradigan o‘qituvchi bevosita sinf rahbari hisoblanadi.

b) “Rus tili”, “Chet tili”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Musiqqa madaniyati”, “Tasviriy san‘at”, “Texnologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan tegishli mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan va O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining “Inklyuziv ta‘lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar” yo‘nalishi bo‘yicha 72-soatlik maqsadli malaka oshirish o‘quv kursi sertifikatini olgan pedagoglar tomonidan o‘qitiladi.

IV. Korreksion mashg‘ulotlar

8. Korreksion mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlar o‘quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini tuzatishga qaratiladi.

9. Korreksion mashg‘ulotlar yakka, kichik guruhli va guruhli tarzda olib boriladi.

10. **“Logopediya”** mashg‘uloti 1-4-sinflarda haftasiga 2 soat ajratiladi va o‘quvchining nutqiy nuqson tuzilishini hisobga olgan holda nutqni korreksiya qilish hamda kommunikativ kompetensiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

“Logopediya” mashg‘uloti sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan yalpi tarzda olib boriladi. Mashg‘ulotlar davomiyligi 40-45 daqiqani tashkil etadi.

Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarning nutqiy rivojlanish dinamikasi va lug‘at boyligini oshirishga qaratiladi.

11. **“Rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish”** mashg‘uloti 1-4-sinflarda haftasiga 2 soat ajratiladi va dars jadvali asosida sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan yalpi tarzda olib boriladi. Mashg‘ulotlar davomiyligi 40-45 daqiqani tashkil etadi. Bunda o‘quvchilardagi mavjud psixologik va fiziologik nuqsonlarni bartaraf etishga qaratiladi.

Ushbu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar baholanadi, sinf rahbari tomonidan mashg‘ulotlar olib boriladi.

12. Amalga oshirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar natijasi o‘quv yilining har chorak yakunida maktabning psixologik-tibbiy-pedagogik konsilium faoliyatini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkil etilgan Kengash tomonidan monitoringi qilinadi.

V. O‘quv materiallar

13. Boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda o‘quv fanlari va korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarning o‘qitilishi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan tavsiya etilgan tegishli o‘quv dasturlari asosida olib boriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

14. O‘quv jarayonini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir ta‘lim muassasasi 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ishchi o‘quv rejasini ishlab chiqadi

va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

16. Barcha turdagi davlat ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar mashg'ulotlari, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

17. Mazkur tushuntirish xatida ko'zda tutilmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal etiladi.

**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning
aqliy rivojlanishida nuqsoni (F70, F71) bo'lgan o'quvchilar uchun
tayanch o'quv reja**

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Haftalik o'quv soatlar (sinflar kesimida)				Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	
I.	Filologiya fanlari	10	12	11	11	44
1	Ona tili	4	4	4	4	16
2	O'qish savodxonligi	4	4	3	3	14
3	Nutq o'stirish	2	2	2	2	8
4	Rus tili			1	1	2
5	Chet tili		1	1	1	3
II.	Ijtimoiy fan	1	1	1	1	4
6	Tarbiya	1	1	1	1	4
III.	Aniq fanlar	5	5	6	6	22
7	Matematika	5	5	5	5	20
8	Informatika va axborot texnologiyalari		1	1	1	3
IV.	Tabiiy fanlar	1	1	1	1	4
9	Tabiiy fan (Science)	1	1	1	1	4
V.	Amaliy fanlar	4	5	5	5	19
10	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	4
11	Tasviriy san'at	1	1	1	1	4
12	Texnologiya	1	1	1	1	4
13	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	7
Umumiy soatlar		21	24	24	24	93
Korreksion mashg'ulotlar						
1	Logopediya mashg'uloti	2	2	2	2	8
2	Rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish mashg'uloti	2	2	2	2	8
Jami		4	4	4	4	16

**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning
aqliy rivojlanishida nuqsoni (F70, F71) bo'lgan o'quvchilar uchun
tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu o'quv reja Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarni tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug'i asosida tuzilgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining boshlang'ich tayanch korreksion sinflari uchun dars jadvalini ishlab chiqishga asos hisoblanadi. O'quv reja ta'lim tashkilotlari fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini, o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimal hajmini belgilaydi.

II. O'quv soatlarining taqsimlanishi

2. **"Ona tili" va "O'qish savodxonligi"** fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga "Ona tili" fani negizida 4 soat "Yozuv" fani, "O'qish savodxonligi" fani negizida 4 soat "Alifbe";
- 3-4-choraklarda 4 soat "Ona tili" fani, 4 soat "O'qish savodxonligi" fani o'qitiladi;
- o'quv yili davomida haftasiga 2-, 3-, 4-sinflarda "Ona tili" fani 4 soatdan, "O'qish savodxonligi" fani 3 soatdan o'qitiladi.

3. **"Nutq o'stirish" fani** haftasiga 1-4-sinflarda 2 soatdan o'qitiladi.

4. **"Chet tili"** fani 2-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan o'qitiladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri chet tili fani sifatida tanlanadi va uni o'qitishda ushbu fan bo'yicha malakali fan o'qituvchisi mavjudligi inobatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-sonli qarori asosida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri umumiy o'rta ta'lim maktabida yoki ma'lum bir sinfida chet tili fani sifatida o'qitiladi.

5. **"Tarbiya" fani** o'quv yili davomida haftasiga 1-4-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

Tarbiya fani ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ularning ijtimoiy-maishiy hayotga moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan holda, mazkur maqsadlar bilan uzviy bog'liq tarzda o'qitiladi

6. **"Informatika va axborot texnologiyalari"** fani 1-4-sinflarda o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

7. **"Tabiiy fanlar (Science)" fani** 1-4-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

**III. Fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib
boruvchi pedagog xodimlar**

8. Fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorida belgilangan talablar, tegishli tartibda

qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishli buyruqlari va quyida ko'rsatilgan tavsiya asosida o'qitilishi lozim:

a) "Ona tili", "O'qish savodxonligi", "Nutq o'stirish", "Tarbiya", "Matematika", "Tabiiy fan (Science)" fanlari va "Logopediya mashg'uloti", "Rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish mashg'uloti" maxsus pedagogika (defektologiya, oligofrenopedagogika) yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega mutaxassislar tomonidan, shuningdek, defektologiya yoki oligofrenopedagogika yo'nalishi bo'yicha tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi. Ushbu fanlardan dars beradigan o'qituvchi bevosita sinf rahbari hisoblanadi.

b) "Rus tili", "Chet tili", "Informatika va axborot texnologiyalari", "Musika madaniyati", "Tasviriy san'at", "Texnologiya", "Jismoniy tarbiya" fanlaridan tegishli mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan va O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining "Inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar" yo'nalishi bo'yicha 72-soatlik maqsadli malaka oshirish o'quv kursi sertifikatini olgan pedagoglar tomonidan o'qitiladi.

IV. Korreksion mashg'ulotlar

9. Korreksion mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar o'quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini tuzatishga qaratiladi.

10. Korreksion mashg'ulotlar yakka, kichik guruhli va guruhli tarzda olib boriladi.

11. **"Logopediya"** mashg'uloti 1-4-sinflarda haftasiga 2 soat ajratiladi va o'quvchining nutqiy nuqson tuzilishini hisobga olgan holda nutqni korreksiya qilish hamda kommunikativ kompetensiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

"Logopediya" mashg'uloti sinfdagi barcha o'quvchilar bilan yalpi tarzda olib boriladi. Mashg'ulotlar davomiyligi 40-45 daqiqani tashkil etadi.

Ushbu mashg'ulot o'quvchilarning nutqiy rivojlanish dinamikasi va lug'at boyligini oshirishga qaratiladi.

12. **"Rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish"** mashg'uloti 1-4-sinflarda haftasiga 2 soat ajratiladi va dars jadvali asosida sinfdagi barcha o'quvchilar bilan yalpi tarzda olib boriladi. Mashg'ulotlar davomiyligi 40-45 daqiqani tashkil etadi. Bunda o'quvchilardagi mavjud psixologik va fiziologik nuqsonlarni bartaraf etishga qaratiladi.

Ushbu mashg'ulotlarda o'quvchilar baholanadi, sinf rahbari tomonidan mashg'ulotlar olib boriladi.

13. Amalga oshirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar natijasi o'quv yilining har chorak yakunida maktabning psixologik-tibbiy-pedagogik konsilium faoliyatini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkil etilgan Kengash tomonidan monitoringi qilinadi.

V. O'quv materiallar

14. Boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda o'quv fanlari va korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning o'qitilishi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan tavsiya etilgan tegishli o'quv dasturlari asosida olib boriladi.

VI. Yakuniy qoidalar

15. O'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Mazkur namunaviy tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir ta'lim muassasasi 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ishchi o'quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

17. Barcha turdagi davlat ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar mashg'ulotlari, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

18. Mazkur tushuntirish xatida ko'zda tutilmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal etiladi.

Ta'lim o'zbek va rus tillarida olib boriladigan umumta'lim maktablaridagi ruhiy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida)									Haftalik umumiy soatlar
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
1	Ona tili	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1	1	12,5
2	O'qish savodxonligi	1	1	1	1	1	1	1	1	1	9
3	Nutq o'stirish	1	1	1	1	2	2	2	2	2	14
4	Matematika	1	1	1	1	1	1	1	1,5	1,5	10
5	Tabiiy fan (Science)	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	4,5
6	Tasviriy san'at	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	4,5
7	Texnologiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	9
8	Logopediya mashg'uloti	1	1	1	1	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	11,5
9	Ijtimoiy maishiy hayotga yo'naltirish	0,5	0,5	0,5	0,5	1	1	1	1	1	7
Umumiy soatlar		8	8	8	8	10	10	10	10	10	82

**Ta'lim o'zbek va rus tillarida olib boriladigan umumta'lim maktablaridagi
ruhiy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim
olishi uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga
tushuntirish xati**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur o'quv O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risida nizom, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarni tasdiqlash to'g'risida" 2026-yil 10-apreldagi 133-sonli buyrug'i hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2026-yil 26-maydagi 217-son buyrug'i asosida tuzilgan bo'lib, ushbu reja umumta'lim maktablaridagi ruhiy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning uyda yakka tartibda ta'lim olishi uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimal hajmini belgilaydi.

2. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun o'quv dasturlar o'quvchilarning psixologik va fiziologik imkoniyatlariga moslashtiriladi. Ta'lim muddatining uzaytirilishi esa ta'lim jarayonida izchillik va bosqichma-bosqichlik tamoyillarini samarali amalga oshirishi muhim hisoblanadi.

II. O'quv soatlarini tashkil etish

3. **"Ona tili"** va **"O'qish savodxonligi"** fanlari uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

bir o'quv yili davomida **"Ona tili"** fani negizida 1,5 soat, **"Yozuv"**, **"O'qish savodxonligi"** fani negizida 1-9-sinflarda 1 soat **"Alifbe"** fanlari o'qitiladi.

4. **"Tabiiy fanlar (Science)"** fani boshlang'ich sinflarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 5-6-sinflarda **"Fizika"**, **"Biologiya"**, **"Geografiya"** fani o'qituvchilari tomonidan o'qitiladi.

5. O'quvchilarni imkoniyati cheklanganligini inobatga olib, har bir dars davomiyligi uzog'i bilan 40 daqiqani tashkil etadi.

6. **"Logopediya"** mashg'uloti 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-9-sinflarda esa 1,5 soatdan o'tiladi va o'quvchining nutqiy nuqson tuzilishini hisobga olgan holda nutqni korreksiya qilish hamda kommunikativ kompetensiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

"Logopediya" mashg'uloti asosan o'quvchilarning nutqiy rivojlanish dinamikasi va lug'at boyligini oshirishga qaratiladi.

7. **"Ijtimoiy maishiy hayotga yo'naltirish"** mashg'ulotlarida ixtisoslashuviga ko'ra shu turdagi yordamchi maktab o'quv dasturidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tish maktab psixologi tomonidan amalga oshiriladi.

Uyda yakka tartibda ta'limni tashkil etishda maktabda asosiy ish joyi sifatida ishlamaydigan o'qituvchilar yoki mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

O'quvchida bir vaqtning o'zida bir necha kasallik turlari uchrasa yoki unga fan o'qituvchilaridan tashqari boshqa mutaxassislar (logoped, psixolog, defektolog va boshqalar) maktabda bo'lmagan taqdirda, boshqa ta'lim muassasalaridan o'rindoshlik asosida jalb qilinadi. Jalb qilingan o'qituvchilarga amaldagi tartibga ko'ra soatbay ish haqi to'lanadi.

O'quvchiga fan o'qituvchilaridan tashqari mutaxassislarni biriktirish uchun tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari mas'ul hisoblanadi.

III. Yakuniy qoidalar

8. O'quv rejaga asosan dars jadvali o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib, ota-onalar bilan kelishgan holda haftasiga kamida uch kunga moslab tuziladi hamda maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

9. O'quvchining qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, ota-onalarning arizasiga muvofiq o'quv rejada ko'rsatilgan fanlarni umumiy soatlar miqdoridan oshmagan holda boshqa bir fanga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Bunday o'zgartirish maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quv rejadagi bitta fanni boshqa bir fan bilan almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

10. O'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Uyda yakka tartibda ta'lim olgan o'quvchilar uchun yakuniy davlat attestatsiyasi (imtihonlari) maktab direktorining buyrug'iga muvofiq o'quvchining sog'lig'i holatini inobatga olib o'quvchining uyida yoki maktabda tashkil etiladi.

12. Mazkur o'quv reja asosida uyda yakka tartibda ta'lim olgan (ruhiy va aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan dasturni tamomlagan), yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilar 9-sinfgacha ta'lim oladi va bitiruvchilarga belgilangan tartibda davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (sertifikat) beriladi.

13. Mazkur hujjatga o'quv rejasi bo'yicha o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan fanlardan yakuniy baho qo'yiladi, dars mashg'ulotlaridan ozod etilgan fanlarga baho qo'yilmaydi hamda uning o'rniga "ozod etilgan" degan so'zlar yozib qo'yiladi.

14. O'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

15. Mazkur tushuntirish xatida ko'zda tutilmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil 29-iyuldagi
276-sonli buyrug'iga
7-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2025-yil 6-fevraldagi 40-sonli buyrug'iga kiritilayotgan
o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
“2025-2026-o'quv yilida inklyuziv sinflar tashkil etilishi rejalashtirilgan umumiy
o'rta ta'lim maktablari ro'yxatini tasdiqlash hamda faoliyatini yo'lga qo'yish
to'g'risida” 2025-yil 6-fevraldagi 40-sonli buyrug'ining 3-ilovasi matni quyidagi
tahrirda bayon etilsin:

“

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining
2026-yil 6-fevraldagi
40-sonli buyrug'iga
8-ILOVA

**Inklyuziv maktablarni nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirish
uchun tavsiya etiladigan jihozlar
RO'YXATI**

T/r	Jihoz nomi	O'lchov birligi	Soni	Namunaviy ko'rinishi	Jihoz quyidagi kasallik bo'yicha tibbiy tashxis qo'yilgan bolalarga tavsiya etiladi
Maktabning inklyuziv sinflari uchun jihozlar					
1	Moslashuvchan parta	dona	Amaldagi inklyuziv ta'limga jalb etilgan bola soniga ko'ra		Tayanch a'zosida nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun
2	Sinf doskasi uchun ko'shimcha yoritgich	dona	Amaldagi har bir inklyuziv ta'lim tashkil etilgan sinf xonasi uchun bir donadan		Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun

3	Universal xadunok (xassa)	dona	Ehtiyojga ko'ra		Tayanch a'zosida nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun
4	Har xil o'lchamdagi kattalashtirib ko'rsatuvchi lupa	to'plam	Amaldagi inklyuziv ta'limga jalb etilgan har bir bola uchun bir to'plam		Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun
5	Stol lampasi	dona	Amaldagi inklyuziv ta'limga jalb etilgan har bir bola uchun bir donadan		Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun
6	FM ovoz kuchaytiruvchi apparati	to'plam	Ehtiyojga qarab amaldagi inklyuziv ta'limga jalb etilgan har bir bola uchun bir to'plam		Eshirtishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi uchun

T/r	Jihoz nomi	O'lchov birligi	Soni	Namunaviy ko'rinishi	Qo'shimcha izoh
Psixolog xonasi uchun jihozlar					
1	Maxsus figurali divan	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
2	Bin-begi	dona	2		O'lchami xonaga mos bo'lishi
3	Sun'iy akvarium	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi

T/r	Jihoz nomi	O'lchov birligi	Soni	Namunaviy ko'rinishi	Qo'shimcha izoh
"Korreksion mashg'ulotlar xonasi"					
1-maxsus pedagog zonasi:					

1	O'qituvchi stol-stuli	to'plam	1		O'qituvchi uchun moslashgan
2	Kitob javoni	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
3	Ochiq polkali javon	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
4	Kiyim-kechak javoni	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
2-o'quv mashg'ulot zonasi:					
1	O'quvchi stol-stul	to'plam	1-6		Soni xona o'lchamiga ko'ra shakllantiriladi
2	Ko'chma doska	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
3	Elektron-interaktiv doska	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
4	Logopedik oynali mashg'ulot stol-stuli	to'plam	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi
3-o'yin mashg'ulotlari zonasi					
1	O'yinchoq to'plam (turli ertak qahramonlari aks ettirilgan qo'g'irchoqlar)	to'plam	1		
2	Ochiq polkali javon	dona	1		O'lchami xonaga mos bo'lishi

3	“Oshxona jihozlari” o‘yinchoqlar to‘plami	to‘plam	1		
4	“Tibbiyot jihozlari” o‘yinchoqlar to‘plami	to‘plam	1		
5	Ertak qahramonlari aks ettirilgan barmoq uchun qo‘g‘irchoqlar	to‘plam	1		
6	Teatr tomoshasi uchun shirna	dona	1		O‘lchami xonaga mos bo‘lishi
4-harakatli mashg‘ulotlar zonasi:					
1	1,5 x 2,0 o‘lchamdagi gilam	dona	1		O‘lchami xona o‘lchamiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin
2	Gimnastik gardish (obruv)	dona	1		
3	Katta o‘lchamli koptok	dona	1		
4	Kichik o‘lchamli koptok	dona	4		
5	Kegli	to‘plam	1		